

**Termiz davlat universiteti Fizika-  
matematika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori, dotsent Choriyeva Sanam  
Tojiyevna taqrizi ostida**

**Gulmirzayeva Sohiba Mamadaminovna  
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi  
Email: [gulmirzayevas@tersu.uz](mailto:gulmirzayevas@tersu.uz)  
Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna  
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi  
Email: [baxriddinovayulduz7@gmail.com](mailto:baxriddinovayulduz7@gmail.com)  
Tel: +99894 462 02 51**

---

## **IQTISODIY MASALALARNI YECHISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**

**Annotatsiya:** Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko'tarishdan asosiy maqsad yoshlarimizning zamonaviy bilim va kasbga ega bo'lishiga qaratilgan. Qolaversa, iqtisodiy masalalarda qo'llaniladigan talim texnologiyalari haqida bir nechta misollar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, ta'lim texnologiyalari, Texnik imkoniyatlar, globallashuv, axborotlar oqimi.

---

## **ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РЕШЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗАДАЧ**

**Аннотация:** Сегодня основная цель содержательной модернизации системы непрерывного образования и повышения эффективности образования на новый качественный уровень направлена на то, чтобы наша молодежь получила современные знания и профессию. Кроме того, вот несколько примеров образовательных технологий, используемых в экономических вопросах.

**Ключевые слова:** Инновации, образовательные технологии, технические возможности, глобализация, поток информации.

---

## **EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN SOLVING ECONOMIC ISSUES**

**Annotation:** Today, the main goal of modernizing the system of continuous education in content and raising the effectiveness of education and training to a new level of quality is aimed at gaining modern knowledge and profession of our youth. In addition, there are several examples of talim technologies used in economic matters.

**Keywords:** Innovation, educational technologies, technical capabilities, globalization, information flow.

---

## **KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov rahbarligida o'z siyosatida rivojlanishning ijtimoiy yo'naltirilganligi, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishni eng ustivor yo'nalish deb tanladi. Bunda boshqa davlatlarda uchramaydigan mamlakatimiz rivojlanishining "O'zbek modeli" yo'li ishlab chiqilib, amalda qo'lanildi. Tarix uchun uncha katta bo'lmagan qisqa muddat ichida bu "O'zbek modeli" o'zining nechog'lik to'g'ri tanlanganligini va bugungi kunda natijalarini butun dunyoga ko'rsatib berdi. Hozirgi kunda yurtimizning iqtisodiyoti dunyo mamlakatlari o'rtasida taqqoslanganda yuqori va sifatli natijalari bilan lol qoldirmoqda. Shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda internetning ta'limga keng tatbiq

etilayotganligi ham o'ziga yarasha ulushi bor. Shu jumladan, ta'lim sohalar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlari, imtiyoz va ustunliklar ancha foyda keltirmoqda. Shu bilan bir qatorda, ilmiy-texnik taraqqiyotining hozirgi bosqichi, o'ziga xos, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimining tashkil etishiga olib keldi. Shunday qilib, zamonaviy jamiyat va oliy ta'lim tizimining kengayishi natijasida ta'lim ommaviyligining o'sishi bilan tavsiflanadi. Ilmiy texnik taraqqiyotning jadallashuvi, ilmiy-texnik axborotlarning jadal o'sishiga va yangilanishiga olib keldi. Hozirgi paytda, jahonda har yili millionlab kitoblar, jurnallar nashr etiladi, minglab dissertatsiyalar himoya qilinadi. Internet global tarmog'idagi axborotlar oqimini amalda o'lchab bo'lmaydi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Farovon kelajagimizni bugundan boshlaydigan bo'lsakda, uni asosan innovatsion yondashuv, innovatsion g'oyalar, asosida boshlashimiz kerak. Shuning uchun biz Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etdik va uning oldiga aniq vazifalarni qo'ydik. Bu vazirlik nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki butun jamiyat hayotida eng muhim loyihalarni amalga oshirishda o'ziga xos lokomotiv rolini bajaradi, deb ishonamiz – deb, ta'kidlagan edi Respublikamizning Prezidenti Sh Mirziyoyev.


Global ommalashuv jarayonlari keng asnoda muhimligi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi o'sib borayotgan bir paytda, telekommunikatsiya sanoati iqtisodiyotning alohida olingan sohasi sifatida rivoj topishi hamda iqtisodiyotning boshqa sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llanilishiga doir masalalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Texnik imkoniyatlarning kengayishi va mazkur sanoatning salohiyatini amaliyotda to'laonli qo'llash milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi va shu tarzda xususiy va davlat tuzilmalarining strategik barqarorligini ta'minladi. Axborot hajmining bu qadar ko'payib ketishi hamda ma'lumotlar oqimining tezlashib borishining asosiy sabablaridan biri axborot texnika, texnologiyalarning rivojlanishi zamonaviy eng yangi texnologiyalarini qo'llash, ikkilamchi xomashyolardan oqilona foydalanish, energetik resurslarni tejamkorlik bilan ishlatish, inson mehnatini engillashtirish hisobiga oshirish bosqichiga kirganligidir.

## **METODLAR**

Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatini, dunyoqarashini har tomonlama o'zgartirish tamoman yangi ilmiy-pedagogik asoslarga tayanishni taqozo qilmoqda. Umumiy o'rta ta'limning oldiga qo'yilgan ustuvor maqsad, vazifa va tamoyillarni amalga oshirish, qolaversa ta'lim mohiyatini o'zgartirishni talab qilmoqda. Balki uning metodlari, sikllari, o'qituvchining ish tizimida ham takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj tobora kuchaymoqda. Birgalikda o'qitish texnologiyasida o'quvchilarni hamkorlikda o'qitishni tashkil etishning bir necha usul metodlari mavjud:

## **NATIJALAR**

### **Pedagogik texnologiyaning shakllanish sharoitlari:**



Kishida bo'lmasa agar ist'edod,

Ming hiyla qil ta'lim kor qilmas aslo.

Gumon qilma, buzoq xudo bo`lmaydi

Butparast oltin-la bersa ham oro.

### **Muniddin Juvayniy**

Bu ishning zamirida kompyuter texnikasi yotadi. Ushbu zamonaviy axborot tizimlaridan samarali foydalanish, asosan individual tarzda ishlash orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy o`qitish tizimining asosiy o`zagi–o`qitishni individuallashtirish deb hisoblash mumkin. Shuning uchun, o`qitishni individuallashtirish, mustaqil ta`lim, masofaviy o`qitish tizimi texnologiyalarini ishlab chiqish va o`zlashtirish dolzarb masalaga aylanib qoldi. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi sharoitida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning farqli xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu sharoitlar kadrlar tayyorlash tizimiga tegishli talablar qo`ymoqda. Ilmiy texnika taraqqiyotining jadallashuvi sharoitida oldingi davrda ishlab chiqariladigan mahsulot yuqori sifati va puxtaligi bilan ajralib turmas edi. Shuning uchun, mahsulotlar uchun kafolatli ta`mir muddatlari o`rnatilgan bo`lib, kafolatli ta`mir esa, ishlab chiqarish korxonalarini hisobidan bajarilar edi. Mazkur sharoitlarda an`anaviy o`qitish tizimi, ishlab chiqarish talabiga javob berar edi. Ishlab chiqarish sharoitining o`zgarishi bilan an`anaviy o`qitish asosida tayyorlangan mutaxassislar malakasi qo`yiladigan talablarga javob bera olmay qo`ydi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, Ushbu yo`nalishlarning har birida ta`lim o`quvchi shaxsining qiziqishi, qobiliyati, imkoniyati va shart-sharoitlari e`tiborga olinib tashkil etiladi. Ayniqsa, shaxsga yo`naltirilgan ta`limda o`quvchida mustaqil fikrlash orqali muammoli vaziyatlardan chiqishga intilish malakasini shakllantirishga alohida urg`u beriladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Yusupov, M., Akhmedov, B. A., & Karpova, O. V. (2020). Numerical Simulation of Nonlinear Vibrations of Discrete Mass with Harmonic Force Perturbation. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 10 (4), 71-75.
2. Akhmedov, B. A., & Khasanova, S. K. (2020). Public education system methods of distance in education in development of employees. Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 1(1), 252-256.
3. CHoriev A., CHoriev N. Pedagogika tarixi metodologiyasi. O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. – T.: “Fan” nashriyoti, 2010. – 173 b.
4. . SHERmuhammedova N.A. Gneseologiya – bilish nazariyasi. O`zR Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi. – T.: “Noshir”, 2011. – 464 b.